AGROBIZNESDA XALQARO HAMKORLIK VA EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Bobojanova Yoqutjon Zokirovna
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
“Biznesni boshqarish (MBA-Agrobiznes)” mutaxassisligi 2-kurs magistratura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18080572

Annotatsiya. *Ushbu maqolada agrobiznesda xalqaro hamkorlik va eksport salohiyatini rivojlantirish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, agrobiznesda xalqaro hamkorlik va eksport salohiyatini samarali rivojlantirish yuzasidan takliflar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются необходимость, существующие возможности и особенности развития международного сотрудничества и экспортного потенциала в агробизнесе. Также предлагаются рекомендации по эффективному развитию международного сотрудничества и экспортного потенциала в агробизнесе.*

Abstract*. This article discusses the need, existing opportunities and specific features of developing international cooperation and export potential in agribusiness. It also provides suggestions for the effective development of international cooperation and export potential in agribusiness.*

Kalit so‘zlar. *Agrobiznes, hamkorlik, xalqaro hamkorlik, eksport, salohiyat, eksport salohiyati.*

Ключевые слова. *Агробизнес, сотрудничество, международное сотрудничество, экспорт, потенциал, экспортный потенциал.*

Key words*. Agribusiness, cooperation, international cooperation, export, potential, export potential.*

Kirish. So‘nggi yillarda globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan ularning tashqi iqtisodiy aloqalardagi faol ishtirokiga, eksport salohiyatining kengayishi va xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Buning sababi bo‘lib, xalqaro bozorlar bilan integratsiya qilgan agrobiznes tizimi ichki bozorni sifatli mahsulot bilan ta’minlash bilan bir qatorda xorijiy valyuta tushumlari orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun qo‘llaniladi. Chunki, O‘zbekiston sharoitida agrobiznes eksport salohiyatini oshirish alohida strategik ahamiyatga ega. Chunki, mamlakat iqlim va resurs imkoniyatlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng nomenklaturasi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lib hisoblanadi. Bu borada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini yanada oshirish, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish, qayta ishlash, saqlash, eksport qilish va kooperatsiya tizimini joriy etish jarayonlarini o‘zaro integratsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-136-son Qarori [1] qabul qilindi. Shunga muvofiq, agrobiznesda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish shartlari, eksportni rivojlantirish omillari, global bozorlarning talablari, logistika va standartlashtirish muammolari hamda O‘zbekiston misolida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Bu borada agrobiznesning raqobatbardoshligini oshirish va uni jahon bozorlariga integratsiya qilish bugungi global iqtisodiyotda eng muhim

vazifalardan biri hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik agrosektor uchun yangi texnologiyalar, investitsiyalar va zamonaviy boshqaruv tajribasini jalb qilishga imkon yaratadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, mahsulot tannarxini pasaytiradi va eksport salohiyatini kengaytiradi. Shu bilan xalqaro investitsion hamkorlik orqali bog‘dorchilik, chorvachilik, issiqxonachilik va qayta ishlash korxonalariga xorijiy kapital kirib keladi. Natijada, zamonaviy irrigatsiya tizimlari, agrotexnika vositalari, sovutkichli omborlar, logistika markazlari barpo etilib, mahsulot sifatining xalqaro standartlarga mosligi ta’minlanadi. Ilmiy-texnik hamkorlik esa yangi navlar yaratish, hosildorlikni oshirish, organik dehqonchilikni kengaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Agrobiznesda xalqaro hamkorlik va eksport salohiyatini rivojlantirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ayrim tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta’minlash hamda ularni eksport miqdorini oshirish bilan bog‘liq faoliyat yoritilgan [2]. Shularga asosan, xalqaro savdo jarayonlari O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tashqi savdoni rivojlantirishga eksport salohiyatini oshirish, jahon bozoriga miqdor va sifat jihatidan yangi mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish orqali erishish mumkin. Bu boradagi tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi sharoitida yirik eksport salohiyatining mavjudligi asoslangan [3]. Yana bir tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi ilgari surilgan. Unga asosan, moddiy-texnik baza va eksportga yo‘naltirilgan infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi va rentabelligini oshirishga, tashqi bozorlarga chiqishga imkon beradi [4]. Ularning turlari sifatida meva-sabzavot sektori bo‘yicha ham tadqiqotlar olib borilgan. Ya’ni, bu borada O‘zbekiston meva-sabzavot sektorining eksport salohiyati yuqori deb baholangan. Bu esa mamlakat xomashyo bazasi, mahsulot yetishtirishda to‘plangan tajriba, mavjud material ishlab chiqarish va logistika imkoniyatlari hamda an’anaviy importchi mamlakatlar bilan o‘rnatilgan aloqalar ekanligi yoritilgan [5]. Yana bir tadqiqotlarda esa qishloq xo‘jaligida fermer xo‘jaliklarining ahamiyati va ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishdagi roli yoritilgan. Unga ko‘ra, oziq-ovqat ta’minoti va xavfsizligi global muammolarni hal qilish orqali bajariladi. Shu bois, oziq-ovqat mahsulotlarining eksport salohiyati yuqori bo‘lib, bu borada O‘zbekistonda eksportchilar uchun imtiyozlar va qulayliklar belgilangan [6].

Tahlil va natijalar. Agrobiznes qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq barcha iqtisodiy faoliyatlar majmui bo‘lib, unga yetishtirish, qayta ishlash, saqlash, transport qilish, ulgurji-savdo va chakana savdo jarayonlari kiradi. Zamonaviy talqinda agrobiznes faqat ishlab chiqarish bilan cheklanmay, ya’ni innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar, marketing, moliyaviy xizmatlar va xalqaro kooperatsiya kabi yo‘nalishlarni ham qamrab oladi. Agrobiznesni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik ilg‘or agrar texnologiyalarni jalb qilish, chet ellik investorlar uchun jozibador sharoit yaratish, birgalikdagi qo‘shma korxonalar faoliyatini kengaytirish, xorij bozorlariga chiqish imkoniyatini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini xalqaro talablarga moslashtirish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu jarayonlar natijasida mamlakat agrar sektori raqobatbardoshligi kuchayadi, eksport hajmi ortadi va iqtisodiy diversifikatsiya ta’minlanadi.

Agrobiznesda eksport salohiyatini belgilashda resurs va iqlim salohiyati muhim o‘rin tutadi. Ya’ni, eksport salohiyatining muhim omillaridan biri bo‘lib tabiiy resurslar imkoniyatidir. Bu borada O‘zbekiston misolida qulay iqlim, sug‘oriladigan yerlar, uzoq vegetatsiya davri hamda meva-

sabzavot yetishtirishdagi an’ana va tajriba kabi omillar yirik ustunlik hisoblanadi. Bu esa turli eksportbop mahsulotlarni yetishtirishga imkon beradi. Texnologik rivojlanish esa eksport salohiyatini belgilovchi asosiy omildir. Zamonaviy irrigatsiya, issiqxona texnologiyalari, agrotexnik tadbirlar, urug‘chilik va seleksiya tizimi rivojlangan mamlakatlarda eksport ko‘lami yuqori bo‘ladi. Ammo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shimcha qiymatli ko‘rinishda eksport qilinishi iqtisodiy samaradorlikni bir necha barobar oshiradi. Shu bois, sifatli qayta ishlash, qadoqlash, saqlash infratuzilmasi eksport salohiyatini kuchaytiradi. Agar eksport mahsulotlari ayniqsa tez buziladigan bo‘lsa, logistika zanjirining mukammalligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sovutkichli omborlar, zamonaviy avtotransport, temir yo‘l va avia eksport tizimining rivojlanganligi eksport samaradorligini oshiradi.

Global bozorda mahsulotning sifat va xavfsizlik standartlariga javob berishi majburiy sanaladi. Sertifikatsiz mahsulotlar ko‘pgina rivojlangan davlatlarga kiritilmaydi. Shu bois, xalqaro sertifikatlash eksport salohiyatining ajralmas qismidir. Bu holatda xalqaro bozorlar birinchi navbatda mahsulotning ekologik tozaligi, kimyoviy moddalardan holiligi, tashqi ko‘rinishi va saqlanish muddati kabi mezonlarini talab qiladi. Ayrim davlatlarda har bir mahsulot guruhiga qarab alohida standartlar mavjud bo‘ladi. Eksport mahsulotining qadoqlanishi uning marketing qiymatini oshiradi. Raqobat kuchli bo‘lgan Yevropa, AQSh va Osiyo bozorlarida ekologik qadoqlash, mahsulot haqidagi aniq ma’lumotlar va saqlash sharoitlari ko‘rsatilishi majburiy hisoblanadi. Brending eksportning barqarorligiga xizmat qiladi.

Har bir davlat bozorining talabi, narx dinamikasi, iste’mol madaniyati turlicha bo‘ladi. Masalan, Yevropaga ko‘proq organik mahsulotlar, Rossiya va Qozog‘istonga ko‘proq meva-sabzavotlar, Xitoyga gilos va o‘rik hamda Koreya va Yaponiyaga quritilgan mahsulotlar eksport qilinadi. Shu bois, tashqi bozorni o‘rganish eksport strategiyasining asosiy qismi hisoblanadi. Bu holatda agrar sohada issiqxonalar, bog‘dorchilik klasterlari, parrandachilik, chorvachilik va logistika markazlari kabi yo‘nalishlarda chet el investitsiyasini jalb qilish xalqaro hamkorlikning eng samarali ko‘rinishidir. Investitsiya oqimi bilan birga texnologiya, ekspertiza va bozorlar ham kirib keladi. Buning uchun universitetlar va ilmiy markazlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik yangi navlar yaratish, hosildorlikni oshirish, kasalliklarga chidamli urug‘lik yetishtirish va organik dehqonchilikni rivojlantirish uchun zarur bo‘ladi.

Ayniqsa, xorijiy eksport kompaniyalari bilan sheriklik esa mahsulotni bevosita sotish, uzoq muddatli shartnomalar tuzish, risklarni kamaytirish va eksportning geografiyasini kengaytirish imkonini beradi. Shunga qo‘shimcha ravishda jahon tajribasi klaster va kooperativlar eksport salohiyatini kuchaytirishda eng samarali mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. Unga ko‘ra, birlashgan ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika va marketing jarayonlarini yagona tizimda boshqaradi. Bu mahsulot tannarxini pasaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Agrobiznesda xalqaro hamkorlik va eksport salohiyatini rivojlantirish uchun O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi yerlarini optimallashtirish, bog‘dorchilik va uzumchilik maydonlarini kengaytirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash agentliklari tashkil etish, bojxona tartiblarini soddalashtirish hamda klaster va kooperativlarni rivojlantirish kabi islohotlar amalga oshirildi. Natijada, O‘zbekiston meva-sabzavot eksporti sezilarli oshdi. Chunki, O‘zbekiston hozirgi kunda yangi meva-sabzavotlar, quritilgan mevalar, yong‘oq va pista, uzum va mayiz, gilos, o‘rik, shaftoli, sabzavot konservalari hamda go‘sht va sut mahsulotlari kabi mahsulot turlarini eksport qilish bo‘yicha yuqori salohiyatga ega. Ammo, bozorlarni diversifikatsiya qilish orqali Yevropa, Yaqin Sharq va Sharqiy Osiyo davlatlariga eksport hajmini kengaytirish imkoniyati mavjud. Bu

borada O‘zbekistonda sovutkichli omborlar, transport-logistika markazlari hamda eksport terminal va inspeksiya xizmatlari takomillashtirilmoqda. Bu esa eksport zanjirini optimallashtirishga xizmat qiladi. Hamda Global G.A.P. va HACCP kabi sertifikatlarni kengaytirish esa O‘zbekiston mahsulotlarining Yevropa va Osiyo bozorlariga kirib borishini tezlashtiradi. Bu borada ko‘plab hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Agrobiznesda xalqaro hamkorlik va eksport salohiyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biridir. Xalqaro bozorlar bilan integratsiya jarayoni innovatsiyalar, investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish orqali agrar sohani modernizatsiya qilishga imkon beradi. Eksport salohiyatining oshishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shimcha qiymatini ko‘paytirib, davlatga barqaror valyuta tushumini ta’minlaydi. O‘zbekistonning tabiiy-iqlimiy imkoniyatlari, agrar salohiyati va amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu yo‘nalishda keng istiqbollarni ochib beradi. Bu borada O‘zbekiston misolida iqlimning qulayligi, mahsulot turlarining xilma-xilligi, meva-sabzavot yetishtirishdagi tajriba va hozirgi islohotlar agrobiznes eksportini kengaytirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyo bozorlariga organik, quritilgan va yangi mahsulotlarni yetkazib berish katta istiqbolga ega.

Ushbu xulosadan kelib chiqib, fikrimizcha, agrobiznesda xalqaro hamkorlik va eksport salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish (tomchilatib sug‘orish, avtomatik monitoring, dron texnologiyasi va raqamli agroxizmatlar eksport sifatini sezilarli oshiradi);
- mahsulotni chuqur qayta ishlashni kengaytirish (quritilgan, muzlatilgan, konservalangan, sharbat va konsentrat shaklidagi mahsulotlarni ko‘paytirish);
- xalqaro marketingni rivojlantirish (onlayn platformalarda faol reklamani amalga oshirish, brend yaratish va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok qilish);
- eksportchilar uchun moliyaviy yordamlarni kengaytirish (kreditlar, sug‘urta mexanizmlari va subsidiyalar orqali eksport jarayonini osonlashtirish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-son Qarori. Manba: https://lex.uz/docs/-7469633
2. Abdirayimov A.R., Muminov N.Sh. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. // Academic Research in Educational Sciences, Volume4, Issue1, 2023. - 167 b.
3. Hamidov I. Increasing export potential on the basis of development of agricultural marketing in Uzbekistan. // Жамият ва инновациялар - Общество и инновации - Society and innovations, Special issue -1, №01 (2020). - 202 b. / ISSN 2181-1415.
4. Тяпкина М.Ф. Развитие экспортного потенциала агропродовольствия. // Экономические отношения, 2020, Т.10, №3. - с. 843-856. – DOI 10.18334/eo.10.3.110865
5. Ибрагимов А. (2020). Повышение экспортного потенциала сельскохозяйственной продукции Узбекистана на современном этапе. // Экономика и образование, 1(3). – с. 236-240. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4450

6. Turobova H.R., Kodirov A.A. The ways to increase the export potential of the farms. // International Journal of Innovative Technologies in Economy. // International Journal of Innovative Technologies in Economy, 4(6), December, 2016. - p. 27.